

№16(82)

5.06.2026



ISSN: 3030-377X



International
scientific journal



Xalqaro
ilmiy jurnal



Международный
научный журнал

SCIENCE SHINE

International scientific journal

Articles are accepted
in the following areas:



SPECIFIC AND
TECHNICAL DIRECTIONS



SOCIAL DIRECTIONS



DIRECTIONS OF
PHILOLOGY



PEDAGOGIC
DIRECTIONS



NATURAL
SCIENCE



ABSTRACT

This international scientific journal
is created for new scientific research.



Google
Scholar

zenodo

CITE INDEX

SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL

ILM NURI
XALQARO
ILMIY JURNALI

СВЕТ НАУКИ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue 16(82)

05. 06. 2026

IC^{WJ} WORLD
JOURNALS



Google
Scholar



zenodo



OpenAIRE



**International scientific
journal
“SCIENCE SHINE”**

Bosh muharrir:
Abdul Khalil Ahmadoughli

**Jurnal bir oyda ikki marta
chop etiladi.**

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2023-
yil 16-fevralda
№063974 sonli guvohnoma
bilan davlat ro‘yxatidan
o‘tkazilgan.**

ISSN 3030 – 377X

**Jurnaldan maqola ko‘chirib
bosilganda, manba
ko‘rsatilishi shart.**

**Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru**

Veb sayt:
<http://science-shine.uz/>

Tahrir kengashi:

Abdukarimov Jamoliddin

Xo‘jand davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi, Tojikiston

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan Impuls tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

University of Business and Science nodavlat oliy ta‘lim muassasasi dotsenti

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Djo‘rayev Mabruk Ma‘murjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti dotsenti

Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna

*O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Madraximov Ilxomjon Sobirovich

Qo‘qon davlat universiteti, filologiya fanlari doktori DSc

Sharipova Nargizaxon Abduqahhorovna

Qo‘qon universiteti dotsenti

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasida dotsenti

Ismoyilov Ubaydulla Mamat o‘g‘li

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” Milliy tadqiqot universiteti katta o‘qituvchisi,*

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Nurmanova Barno Axmadjon qizi

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

“Magistratura” bo‘limi boshlig‘i, PhD

Xamraqulov Serobjon Soliyevich

Qo‘qon davlat universiteti, PhD

Mamatxanov Azizxon Axramxonovich

*Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti Sholi genetikasi va
seleksiyasi laboratoriya mudiri, Q.x.f.f.d., (PhD)*

Nozima Mamadjanova Adxamovna

Namangan davlat universiteti Ingliz tili fani o‘qituvchisi,

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abdug‘aniyev Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li

TIQXMMI milliy tadqiqot universiteti katta o‘qituvchisi,

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

ijtimoiy - gumanitar fanlari kafedrasida katta o‘qituvchisi

siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Zaripova Rayima Sharifovna

*Toshkent farmasevtika instituti Organik sintez kafedrasida katta o‘qituvchi
kimyo fanlari nomzodi*

XIII – XV ASRLAR OXIRLARIDA XORAZM VOHASIDA IJTIMOIIY- IQTISODIY AHVOL

Ibragimova Gulzoda Farxadovna

Urganch Innovation Universiteti tarix fani o'qituvchisi

Maqolaning qisqacha mazmuni: Xorazm vohasi janubiy qismining XIII – XV asrlar davri shaharsozlik an'analari tarixi va umuman iqtisodiy hayot va savdo aloqalari masalasi kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, bu yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlarining kamligidan kelib chiqadi. Xususan, bu asrlarda Xorazmda kechgan siyosiy jarayonlar masalasi yozma manbalarda ancha sust aks etgan bo'lib, shu jihatdan tarixshunoslik nuqtai – nazaridan ham alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. SHu jihatdan olganda, Janubiy Xorazm vohasining XIII – XV asrlar davri shaharsozligi hamda tashqi savdo aloqalari masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qo'ng'iro't so'fiylari, Amir Temur, temuriylar, Xiva, Vazir, Tirsak, Yangishahar (SHemaxa-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik.

Аннотация: История градостроительных традиций южной части Хорезмского оазиса в период XIII-XV веков и вопрос экономической жизни и торговых связей в целом является одной из малоизученных тем, что связано с отсутствием письменных источников. и данные археологических исследований. В частности, вопрос о политических процессах, происходивших в Хорезме в эти столетия, был отражен в письменных источниках достаточно слабо и в этом отношении не изучался как отдельная тема даже с точки зрения историографии. С этой точки зрения вопрос градостроительства и внешнеторговых связей Южно-Хорезмского оазиса в XIII-XV веках считается одной из актуальных проблем, и данной теме посвящена данная статья.

Ключевые слова: Улус Чигатая, Золотая Орда, Кунградские Суфи, Amir Тимур, Тимуриды, Хива, Вазир, Тирсак, Янгишехр (Шемаха-кала), Адак (Ак-кала), Кумкенд, Багдадик.

Annotation: The history of the town-planning traditions of the southern part of the Khorezm oasis during the period of the 13th-15th centuries and the issue of economic life and trade relations in general is one of the little-studied topics due to the lack of written sources. and archaeological research data. In particular, the question of the political processes that took place in Khorezm in these centuries was

reflected in written sources rather poorly and in this regard was not studied as a separate topic even from the point of view of historiography. From this point of view, the issue of urban planning and foreign trade relations of the South Khorezm oasis in the 13th-15th centuries is considered one of the pressing problems, and this article is devoted to this topic.

Key words: Ulus of Chigatai, Golden Horde, Kungrat Sufis, Amir Timur, Timurids, Khiva, Wazir, Tirsak, Yangishehr (Shemakha-kala), Adak (Ak-kala), Kumkend, Bagdadik.

KIRISH (INTRODUCTION). Mo'g'ullar bosqini eng avvalo shaharlar taraqqiyotiga juda katta ta'sir qilgan. Shaharlar va qal'alarning birontasi ham vayronagarchilikdan chetda qolmadi. Ayniqsa, Gurganj va Chirchik qirg'oq Xorazmning ba'zi shaharlari qattiq talandi. Rustoqlar, sug'orish inshootlari yo'q qilindi, dehqonlar va shahar hunarmandlari qisman qirib yuborildi, ko'pgina qismi Mo'g'ulistonga haydab ketildi. Ko'pgina savdogarlar, din vakillari va boshqa aholi G'arbdagi mamlakatlarga qochib ketishga majbur bo'ldilar.

Xorazmning Anushteginiylar davrida yuksak darajada taraqqiy qilgan shaharsozlik madaniyati, o'z-o'zidan ma'lum inqirozga yuz tutdi. Anushteginiylar davrida aynan Xorazm vohasida qancha shahar bo'lganligi noma'lum. Faqat arab sayyohi Yoqut Hamaviy mo'g'ul bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatida bo'lib, Xorazm vohasidagi 20ga yaqin shaharlarni sanab o'tgan. Ammo, bu bilan Xorazmshoh – Anushteginiylar davrida voha miqyosida sayyoh ko'rsatib o'tgan shaharlarga mavjud bo'lgan degan xulosaga kelib bo'lmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Keyingi o'rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm savdo shaharlari, ayniqsa, Urganch yana o'z davrining eng yirik savdo markazlari sifatida, Xorazm (ko'proq Shimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqei baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Ammo, mo'g'ul istilosidan keyin to Xiva xoni Abulg'oziygacha yozilgan yozma manbalar juda kamligi va borlarida ham ushbu muammo bir taraflama yoritilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga bu manbalarda ba'zi qarama-qarshi olimlar o'rtasida Xorazmning XV asrgacha bo'lgan davrda savdo shaharlarining mavqei, holati to'g'risida muayyan ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi.

Mo'g'ul bosqinidan keyingi Xorazm to'g'risida endi Yevropa manbalarida ham ma'lumotlar mavjud XIII-XIV asrlar davomida turli sabablarga ko'ra Xorazmda bo'lgan yevropalik sayyohlar Plano Karpini (1246 yilda kelgan), aka-uka Pololar

(1260 yilda kelgan), italyan savdogari Franchesko Balduchchi Pegoletti (1340 yilda kelgan) asarlarida Xorazm shaharlari, ayniqsa, Urganch to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud [16, 20; 21,46,209;22,22;23,211].

1333 yilda Xorazmga markazlashgan arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning "Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar" ("G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa") asarida Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ba'zi ma'lumotlar uchraydi [11,8,21,58-63].

XIV asr oxiri – XV asr tarixchilari ichida Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori Temur" ("Temur sarguzashtlarida taqdir mo'jizalari") asari iqtisod, savdosotiq va shaharning boshqa ko'pgina jihatlarini yorituvchi ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Muallif Xorazmning XIV asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan biri bo'lganligini ko'rsatib o'tish bilan birga, Temur yurishlaridan so'ng SHimoliy Xorazm iqtisodiyotining tushkunlikka tushganligini ham qayd qilib o'tgan [10].

Yuqoridagi Yevropa va arab manbalarining barchasida Xorazm savdo shaharlarining, ayniqsa Urganchning o'sha davrda rivojlangan eng yirik va boy shaharlardan bo'lganligi ta'kidlangan. SHu bilan birga ulardagi ma'lumotlar shunisi bilan xarakterli va qimmatliki mualliflarning barchasi ham o'z davrida Xorazmda bo'lganlar va o'z ko'rgan–bilganlarini yozganlar. XIII-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ma'lumot beruvchi ikkinchi tur manbalar mavjudki, ular ko'proq ikkinchi bir odamdan eshitgan yoki o'rta asr boshqa manbalaridan olingan ma'lumotlarga tayangan holda yozilgan.

Bunday manbalar ichida alohida qimmatga ega bo'lganlaridan mashhur fors geografi Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning «Nuzhat-ul-qulub» («Qalblar oromi») asari [3,260-263; 4,46,51-54; 14,506-511], SHahobiddin al-Umariyning «Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar» («Turli mamlakatlar davlatlari bo'ylab o'tgan yo'llar») asari [24,207-208], al-Bakuviyning (XIV-XV asrlar) «Kitob talxis al-asar va ajoyib al-malik al-qahhor» («Buyuk podshoning mo'jizalari va yodgorliklari haqidagi kitobning qisqartmasi») nomli asarlaridir [2]. CHunki Hamdulloh Qazviniy asarida Xorazmning XIV asrdagi geografik holati, xususan yirik shaharlari, iqtisodiyoti haqida ma'lumotlar keltirish bilan birga, Xorazmni Eron bilan bog'lovchi karvon yo'llari va ulardagi manzillar, masovalar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Al-Umariy va al-Bakuviy asarlarida esa ko'proq Xorazmda shaharlar, bozorlar, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, narx-navo, pul munosabatlari umuman, shaharlar xo'jalik hayoti to'g'risida fikr yuritiladi.

SHuningdek, SHayx al-Birzaliy [24,172-175], an-Nuviyriy [24,152], Ibn Xaldun [24,385-391] kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin SHomiy [12,514-523;19], SHarofiddin Ali Yazdiy [26], Abdurazzoq Samarqandiy [1; 13,531-535], Hofizi Abro'[5], Xondamir [25] kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asarlar Xorazm savdo shaharlari va ularning xo'jalik hayoti haqida ma'lumotlar uchraydi. Ammo yuqoridagi asarlar kabi bu asarlarda ham jiddiy xatolar mavjud bo'lib, ulardan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimligini ta'kidlash kerak. Xorazm savdo shaharlarining geografik holati to'g'risida XIV-XV asrlarda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma'lumot beradi. 1367 yilda aka-ukalar Frantsisko va Domeniko Pitsiganilar xaritasida Urganch, 1375 yilgi Katalon atlasida Urganch, Mizdahqon, Xiva, XV asr Venetsiya kosmografi Fra-Mauroning 1459 yilgi xaritasida esa Urganch shaharlari ko'rsatib o'tilgan. Bu xaritalar boshqa manbalar ma'lumotlarini to'ldirib, bu shaharlarning o'rnini to'g'ri belgilashga yordam beradi [6,23-25; 8,114-126; 27].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Barcha bosib olingan yerlar 1224 yilda CHingizxon o'g'illari o'rtasida katta ulus sifatida taqsimlangan. Xorazm hamda hozirgi Qozog'iston hududining g'arbiy qismi, Rossiyaning Yevropa qismi sharqiy hududi Jo'jiga ulus qilib berildi. Xorazmning janubiy qismini Kat va Xiva shaharlari bilan CHig'atoy ulusiga qo'shib berildi. Xullas, mo'g'ul bosqini Xorazm savdo shaharlarining rivojini, savdo-sotiq aloqalarini bir oz to'xtatib qo'ydi. Ko'pgina shaharlar – Tohiriya, Darg'on, Jigarband, Sadvar, Kardaronxos, Sovkan, Ardaxushmisan, Nuzvor, Guldursun, SHo'roxon, Norinjon, Qavatqal'a, Mizdahqon, Kurdor kabi shaharlar hamda qal'alar esa abadiy xarobaga aylanib qoldi. Qolgan shaharlar va qishloqlardagi hayot bir qancha vaqt o'tishi bilan tiklangan edi. Ammo bu yerda aholining butunlay qirib yuborilishi va barcha shahar hamda rustoqlarning vayron qilinishi haqida gap bo'lishi mumkin emas, chunki soliq yig'ib olishga qiziqqan mo'g'ullar Xorazmda aholi bo'lishi kerakligini tushungan edilar. Bu borada mo'g'ul imperiyasining boshlig'i O'gadoyxonning (1229-1239 yillar) Mo'g'ulistondan asirlarning ma'lum qismini o'z vataniga qaytarish to'g'risidagi farmoni diqqatga sazovordir. Buning ustiga mo'g'ullar mamlakatlar iqtisodini qo'llab-quvvatlash zarurligini tushunish borasida ancha uzoqni ko'rar edilar. SHuning uchun mo'g'ul imperiyasining bepoyon yerlarida hududlar o'rtasida iqtisodiy aloqa qilish va xavfsiz karvon savdosining yurishi ta'minlangan edi. Hunarmandlar markaziy shaharlarga joylashtirilgan va ular mahsulotlarini sotish

uchun ishlar edilar. Oltin O'rdaning Saroy Berka, Saroy Botu va Urganch shaharlari karvon savdosining markazi bo'lib qolgan edi, bu yerlarda hunarmandchilik va madaniy hayot rivojlangan edi.

XIII asrning ikkinchi yarmidanoq ilgari vayron qilingan shaharlarning ko'pchiligi tiklandi, yangilari barpo qilindi, sug'orish inshootlari ham ta'mirlandi.

CHig'atoy ulusi tarkibiga kirgan Xiva ham XIII asr oxirlariga kelib, to'laligicha qayta tiklandi. SHahar iqtisodiy hayotida katta rol o'ynagan hunarmandchilik o'zining barcha turlari bo'yicha bosqichma-bosqich rivojlana borib, ba'zi sohalarda yuksak yutuqlarga erishildi. Masalan, hunarmandchilikning kulolchilik yo'nalishini oladigan bo'lsak, koshinkor idish ishlab chiqarish o'zining eng yuksak darajasiga ko'tarildi. XIII-XIV asrlarda sopol idishlarga badiiy ishlov berishda turli xil uslublarni qo'llash keng ko'lamda rivojlandi. Idishlar sirtiga rangli glazur berish, qabariq chiziqli naqsh solish va shtamp bosish keng rivojlandi. Idishlar sirtiga berilgan xilma-xil naqshlar orasida o'simlik va jonivorlarning suratlarini tushirishga alohida e'tibor berildi. Badiiy yuksak ishlangan naqshinkor idishlar sirtiga lyustraviy gul berish uslubi paydo bo'ldi.

XIII-XIV asrlar shahar hunarmandchiligi hayotida boshlangan bu taraqqiyot, keyingi asrlarda o'zining eng yuqori nuqtasiga ko'tarildi.

Xiva Buyuk Ipak yo'lining shimoliy mamlakatlar bilan bog'lab turuvchi xalqaro savdo markazlaridan biri sifatida Volgabo'yi, umuman, Rus yerlari bilan aloqani kuchaytirdi. Xivaning savdo aloqalari nafaqat shimol bilan, balki undan janubda joylashgan viloyat va mamlakatlar bilan o'rta va Yaqin SHarq bilan ham keng ko'lamda rivojlandi. 1400-1401 yillarda zarb qilingan Amir Temur kumush tangalarining Xivadan topilishi uning shu davrda yirik shaharlardan biri bo'lganligining yana bir dalilidir [17,3-9].

O'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlari to'g'risida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda ilgari mavqeini tiklay olmaganlar.

Ibn Battuta o'z sayohatnomasida Urganchdan Katgacha aholi yashaydigan qishloqlarni uchratmaganligi haqida so'z yuritgan edi. Ammo bu bilan ilgari mashhur bo'lgan va Buxoroga olib boruvchi mazkur yo'lida birorta qishloq yoki shahar bo'lmagan, u faqat sahrodan iborat, degan fikr ham noto'g'ri bo'lur edi. Aftidan, Ibn Battuta katta obod qishloqlar bo'lmaganligi haqida fikr yuritgan bo'lsa kerak.

Kat ilgari mavqeini tiklay olmagan bo'lsa-da, Movarounnahr bilan bo'ladigan savdo yo'lida joylashganligining o'ziyoq, bu shahar keyinchalik ham kichik bo'lsa-da, savdo markazi sifatida rol o'ynagan.

Arxeologik tadqiqotlar o'ng qirg'oq Xorazm shaharlaridan yana biri, Katdan yuqorida joylashgan SHo'roxonning mo'g'ullar hukmronligi davrida ham yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo'lib qolganligini ko'rsatadiki, bu bizning yuqoridagi fikrimizni to'la tasdiqlaydi.

Xorazmning Oltin O'rda davridagi xo'jalik yuksalishi, unga yana mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatini berdi. Ammo bu mustaqillik uzoq davom etmadi. Taxminan XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdaning so'nggi kuchli xoni O'zbekning o'limi natijasida bu davlatda boshlangan parokandalikdan foydalanib, O'zbekning Xorazmdagi noibi Qutlug' Temur mustaqil siyosat yurgiza boshlagan edi. SHu davrdan boshlab, Xorazmda hokimiyat tepasiga Qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan So'filar sulolasi kelib, tez orada SHimoliy va Janubiy Xorazmni birlashtirdilar. Qo'ng'iroq so'filari oltin dinor va "ismi yo'q" tangalar zarb qildirib, muomalaga kiritdilar. Buning ustiga 1379–1380–1391 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamish nomidan kumush tangalar ham zarb qilingan [18,44-47].

Ammo bu davrda Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lgan Temur, mo'g'ullar istilosidan keyin ancha holdan toygan Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat tuzishga va tartib-qonun ishlarini joriy etishga kirishgan edi. Xorazmda mustaqil davlatning vujudga kelishi esa Temurning feodal tarqoqlik, o'zaro nizolarga chek qo'yish siyosatiga zid edi. Xorazmni CHig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblagan Temur Xorazmni qo'lga kiritish siyosatini tutdi. Buning ustiga Temur Oltin O'rda orqali o'tuvchi Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'ini ham Movarounnahr orqali o'tishi uchun kurashdi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Temur Xorazmga 1372-1388 yillar davomida 5 marta yurish qildi va 1388 yildagi beshinchi yurish davridagina, uni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Temurning oxirgi yurishida Urganch shahri vayron etilgan bo'lsa-da, ammo u tezda, ya'ni 1391 yildayoq bu shaharni qaytadan tiklashga ruxsat berdi. Temur o'zining asosiy raqibi, Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan bo'lgan kurashda uni yengib, to Moskva ostonasigacha quvib bordi. Qaytishda Oltin O'rdaning yirik siyosiy-iqtisodiy va savdo markazlari – Saroy Botu, Saroy Berka va Hojitarxon (Astraxan) shaharlarini vayron qildi. Natijada Xitoyni Yaqin SHarq mamlakatlari bilan bog'lagan savdo yo'lining Oltin O'rda orqali o'tgan shimoliy tarmog'i barham topib, butun savdo qatnovi yana Movarounnahr shaharlari orqali amalga oshirila boshlandi. Umuman, Temurning ulkan, bir butun, yaxlit va markazlashgan davlat tuzishi, shu hududda siyosiy barqarorlikning mavjud bo'lishi iqtisodiyotda, ayniqsa, savdo-sotiqda ijobiy o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelgan. CHunki bu davrda, shubhasiz, Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan Markaziy Osiyo orqali Yaqin SHarq

va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo yo'li – Buyuk Ipak yo'lini egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda muhim chora-tadbirlar ko'radilar va SHarq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor beradilar. Xorazmdagi Temur davri savdo markazlari to'g'risida tarixchilar Nizomiddin SHomiy, SHarafiddin Ali Yazdiy asarlari va boshqa bir qancha manbalarda bir qator ma'lumotlar mavjud. Bu manbalarda Vazir, Tirsak, Yangishahar (SHemaxa-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik, Xiva va qayta tiklangan Urganch kabi shaharlar to'g'risida so'z yuritiladi va ularning bu davrda ham boy savdo shaharlari bo'lganligi eslatib o'tilgan. Garchi Xorazmshohlar va Oltin O'rda davri savdo shaharlari bilan tenglasha olmasada, bu davrda Yangishahar (SHemaxaqal'a), Qumkend va Tirsak shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lganligi manbalarda ko'p bora eslatiladi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham to'la-to'kis tasdiqlaydi. Ammo Temur vafotidan keyin temuriylar o'rtasida boshlangan o'zaro kurashlar bu rivojlanishga barham berdi. Xorazm to XVI asr boshigacha goh temuriylarga, goh Oltin O'rdaga, goh Dashti Qipchoq o'zbeklariga bo'ysunib turgan va ular o'rtasidagi jang maydoniga aylanib qolgan. Ayniqsa, temuriy shahzodalarning Xorazm uchun bo'lgan ko'pdan-ko'p urushlaridan foydalangan Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklarining yildan-yilga ko'payib borgan talonchilik yurishlari, Xorazm savdo markazlari uchun halokatli bo'lgan. Buning oqibatida, XV asr davomida Xorazm asta-sekin asosiy savdo yo'llaridan chetda qola boshlagan. Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbek xonlari va sultonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlarning avj olishi Xorazmni uzoq vaqtgacha SHarqiy Yevropa va Volgabo'yidan ajratib, savdoning to'xtab qolishiga olib kelgan. O'zaro feodal urushlar, hatto ichki savdo-sotiqqa ham to'siq bo'lgan. XVI asrga kelib, Buyuk Ipak yo'lining ham deyarli o'z faoliyatini to'xtatishi bilan Xorazm savdo shaharlari faoliyati ancha qisqarib, ilgari ahamiyatini deyarli yo'qotgan.

1963, 1968-1971 yillar davomida Qoraqalpog'iston arxeologlari Yu.P.Manilov rahbarligida tadqiqotlarni davom ettirib, o'ng qirg'oq Amudaryo bo'ylab arxeologik ishlar olib borib, Kat, Abu Muslimqal'a, Janpikqal'a yodgorliklarini o'rganib chiqdilar [15]. Bu arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan eng muhim narsa shu bo'ldiki, Ibn Battuta ta'kidlagan, o'ng qirg'oq Xorazmda Buxoroga qadar Qiyot (Kat)dan boshqa shahar yo'q degan ma'lumoti unchalik haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Arxeologik tadqiqotlar samarasi o'laroq o'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlaridan topilgan juda boy materiallar ayniqsa, ko'plagan Oltin O'rda tangalari shuni ko'rsatadiki, mo'g'ul bosqinidan keyin ham o'ng qirg'oq Xorazm savdo shaharlari

asta-sekin bo'lsa-da, o'z qaddini tiklab olganlar. Ammo, ulardan hech qaysisi X-XIII asrlardagi darajasiga yeta olmagan. 1973, 1978-1981, 1981-1983, 1985-1987 yillarda Janpiqqal'ada, 1980, 1985, 1986-1987 yillarda Mizdahqonda, 1963, 1965 yillarda SHahrlikda, 1973-1974 yillarda Vayangan (Ardaxushmisan)da olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Xorazm savdo shaharlarining topografiyasi, xo'jalik hayotini aniqlash bilan birga, ularning olib borgan savdo aloqalarining yo'nalishlarini hamda muayyan bir o'lkadan (masalan, Erondan, Volgabo'yidan va hokazo) qanday mahsulotlar keltirilganligini yoki Xorazmdan shu o'lkalarga qanday mollar chiqarilganligini to'liq bo'lmasada, aniqlash imkonini berdi [15]. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan savdo shaharlaridan tashqari, X-XV asrlarda Xorazm savdo shaharlari qatoriga kirgan boshqa savdo shaharlarida ham arxeologik tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Xorazmning XIII-XIV asrlarda umum Yevroosiyo savdosida tutgan o'rni, shu davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Oltin O'rda davlati iqtisodiy-madaniy hayotida tutgan o'rni mavzusini yoritishda ayniqsa qoraqalpoq arxeologi va tarixchi olimi M.SH.Qdymniyozovning xizmatlari katta. U bu mavzuga oid ko'plagan monografiya va maqolalar muallifidir. U yana Xorazmning Xorazmning XIII-XIV asrlarda Buyuk Ipak yo'li savdosida tutgan o'rni ancha salmoqli bo'lganligini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar yordamida isbotlab berdi [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xullas, IX-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ko'pgina arab-fors, yevropa va eski o'zbek tilidagi manbalarda ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ammo umumiy holatda ular savdo shaharlarining xo'jalik hayoti, mavqei to'g'risida atroflicha ma'lumotlar bera olmaydi. Mavzuning chin ma'noda o'rganilishi esa XIX asrdan boshlagan. Ammo XIX asr rus va yevropalik tadqiqotchilar bu mavzuni o'rganishda ko'proq aynan yuqoridagi manbalar ma'lumotlariga tayanganlar.

Xorazmning qadimiy tarixi, savdo shaharlari to'g'risida XIX asr rus geograflari, tarixchilari, elchilari, harbiy topograflari, etnograf va sayyohlari tomonidan chop qilingan ko'pgina asarlar va maqolalardan ham ma'lumotlar topishimiz mumkin. Xorazmga bu davrda birinchi ilmiy ekspeditsiyalar yuborilgan. Yo'llar, mustahkamlangan qal'a va qo'rg'onlar, iqtisodiyot to'g'risidagi ma'lumotlar to'plash bilan bir qatorda, ular vohaning qadimgi tarixini ham o'rganganlar. Natijada Xorazmning o'rta asrlar shahar madaniyati masalalari to'g'risidagi bir qancha ilmiy asarlar, hisobotlar paydo bo'ldi. Bu davrga Xiva vohasi tavsiflari ham taalluqli bo'lib, ular ko'proq ilmiy xususiyatga ega bo'lgan.

XIII – XV asrlar Janubiy Xorazm shaharlari va ularning xalqaro savdo munosabatlaridagi o'рни masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матла'ус-садайи ва мажма'ул-баҳрайи. / Масъул муҳаррирлар: А. Қайюмов, Муҳаммад Али. – Т.: "O'zbekiston", 2008. Ж. II, Қ.1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
2. Ал-Бакувӣ, 'Абд ар-Рашид. Китāб Талхис ал-ссāр ва 'аджā'иб ал-малик ал-каххār: ("сокращение [книги о] "Памятниках" и чудеса царя могучего") / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение З. М. Буниятова. – Москва: Наука, 1971. – 192 с.
3. Бартольд В.В. Дорожник от Бистами до Куны Ургенча. – Соч. Т.3. – М.: Наука, 1963. – С.260-268.
4. Бартольд В.В. Сведения об аральском море ижтимоий низовях Амударьи с древнейших времён до XVIII в. – Сочинения. Т.3. – М.: Наука, 1963. – 712 с.
5. Бартольд В.В. Хафиз-и Аbru и его сочинения // Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.: Наука. 1973. – С. 74-98.
6. Брун Ф. Перипл Каспийского моря по картам XIV столетия. // ЗНУ., Т.9. 1879, с.23-25 и. карти.
7. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Ургенч в 1952 г. //ТХЭ, т.2. – М.: Наука, 1958. – С. 476-494.
8. Егоров В.Л. География городов Золотой Орды. // Советская археология (СА), 1974, №1. – С.114-126.
9. Заходер Б.Н. Каспийский свод сведений о Восточной Европе. – Т. 2. – М., 1967. – 213 с.
10. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Т., «Меҳнат», 1992. – 326 б.
11. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. -Т., «Шарқ баёзи», 1993. – 104 б.
12. Извлечения из “Зафар-намэ” Низам-ад-дина Шами // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Якубовского. – С.514-523.



13. Извлечения из “Матла ас-са’дейн” Абд-ар-раззака Самарканди / МИТТ, т.I. – С.531-535.
14. Извлечения из “Нузхат ул-кулуб” Хамдаллаха Казвини // МИТТ, т.I. – С.506-511.
15. Кдырниязов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII-XIV веках. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1989. – 176 с.
16. Книга Марко Поло / Пер.И.И.Минаева. – М.: Географгиз, 1955 – 376 с.
17. Мамбетуллаев М., Абдримов Р. Основные этапы развития города Хивы // Общественные науки в Узбекистане. 1997. № 7-8. – С.3-9.
18. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье.//Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. - с.44-47.
19. Низомиддин Шомий. Зафарнома.Форс тилидан ўгирувчи Ю.Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 544 б.
20. Пачкалов А.В. Города Нижнего Поволжья в XV веке// Золотоордынская цивилизация. Вып.1. – Казань, 2008. – С. 58-70.
21. Пеголотти Ф.Б. Практический указатель торговцам. Под ред. А.Эванса. -Кембридж-Массачусетс. 1936, с.22 (на англ. языке). – 443 pp.
22. Путешествия в восточные страны Плано Карпини и Рубрука / Ред., вступ. ст. и прим. Н.П. Шастиной. М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. - 287 с.
23. Рихард Хенниг. Неведомые земли. – М.: Изд-иностр.лит., 1962. – 516 с.
24. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941.– С.90-99, 152, 172-175, 385-391.
25. Хондемир. История монголов. От древнейших времен до Тамерлана / Пер. с перс. и авт. предисл., примеч. В. В. Григорьев. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – XII, 159 с.
26. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.



27. Чекалин Ф.Ф. Нижнее Поволжье на карте космографа XV в. Фра-Маура. //ТСУАК. т.П., вып.2. – Саратов, 1890, карта.
28. Шильтбергер Иоганн. Путешествие по Европе, Азии и Африки с 1394 по 1427 г. (перевод Ф.К.Бруна). – Баку: Елм, 1984.- С. 44.
29. Юсупов Ш. Амир Темура ва темурийлар даври Хоразм тарихи хориж ва совет тарихшунослигида // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент – Урганч: Navro'z, 2019. – Б. 318-321.



MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	QO‘QON XONLIGI TARIXIDA MOHLAROYIM (NODIRA)NING MADANIY VA ADABIY FAOLIYATI Sidiqjonova Hayriniso Ilhomjon qizi Abdullayev Ravshanjon	3
2.	EFFECTS OF PEER AND SELF-EVALUATION ON SPEAKING SKILL DEVELOPMENT N.B. Rasulova	7
3.	BOSHLANG ‘ICH TA’LIMDA O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINING HOZIRGI HOLATI Eshpulatova Sevinch Shokir qizi	11
4.	CLASSROOM MANAGEMENT Kadirova Khurshida Bakhadirovna Reyimberganova Mehrixon Yunus qizi	17
5.	PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINING MOHIYATI, MAZMUNI VA VAZIFALARI Eshpulatova Sevinch Shokir qizi	20
6.	PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE EMERGENCE OF STRESS, DEPRESSION, AND ROLE CONFUSION IN ADOLESCENTS Axmatova Guli Xurram qizi	24
7.	CLASSROOM INTERACTION, TYPES OF CLASSES, TYPES OF GROUPS Kadirova Khurshida Bakhadirovna Abdullayeva Sarvinoz Khamra qizi	29
8.	DEVELOPING STUDENTS' VOCABULARY LEARNING STRATEGIES Sodullayeva Gulmira Qo‘ziboy qizi Kadirova Khurshida Bakhadirovna	32
9.	OBSERVING LEARNING AND TEACHING IN THE SECOND LANGUAGE CLASSROOM Kadirova Khurshida Bakhadirovna Iskandarova Shahlo Oybek qizi	35
10.	KIMYO SANOATI TRANSFORMATSIYASI: TAHLIL VA USTUVORLIKLAR Qudratxo‘jayev Abduqaxxor Kudratxo‘ja o‘g‘li Tohirova Muhlisaxon Darvishali qizi	38
11.	KOMPLEKS SONLAR Karimova Xalima Samatovna	50
12.	KO‘PHADLAR Karimova Xalima Samatovna	58
13.	THE MASK OF VIRTUE: SOCIAL HYPOCRISY AND THE POOR IN CHARLES DICKENS' OLIVER TWIST Ergashaliyeva Gulasalxon Kenjaboy qizi	65
14.	MEHNAT MIGRATSIYASINING FARZAND TARBIYASIGA TA’SIRI Mamadaliyeva Muhliisa Olimjon	75
15.	TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI Sultanbayev Elyorbek Doniyor o‘g‘li	82



16.	ВЛИЯНИЕ ПРОИЗВОДНЫХ 1.3.4-ТИАДИАЗОЛОВ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ РАСТЕНИЙ ATRIPLEX PRATOVII SUKHOR. В ЛАБОРАТОРНЫХ УСЛОВИЯХ Юсупова Муаззам Бахадировна.	91
17.	DEEP LEARNING MODEL BASED ON ACOUSTIC ANALYSIS OF VOICE TONALITY AND SPEECH RATE FOR STUDENT EMOTIONAL STATE DETECTION IN CLASSROOM ENVIRONMENTS Mardiev Muslimbek G'ulom o'g'li Yakhshibaev Doniyor Sultonbaevich	95
18.	O'QUVCHILARDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI Ro'zmetova Yulduz Norimon qizi Rajabbayeva Sohiba Ibadullayevna	112
19.	QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA DUNYO ADABIYOTI Dilorom Toshboyeva Kamol qizi	115
20.	XIV – XVI ASRLAR XORAZM VOHASI SHAHARLARI Ibragimova Gulzoda Farxadovna	121
21.	XIII – XV ASRLAR OXIRLARIDA XORAZM VOHASIDA IJTIMOY-IQTISODIY AHVOL Ibragimova Gulzoda Farxadovna	129
22.	XIV ASR 30-70-YILLARIDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR VA XORAZMDA QO'NG'IROT SO'FILARINING TAXTGA KELISHI Ibragimova Gulzoda Farxadovna	140
23.	O'ZBEKISTONDA RAHBAR AYOLLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI ISHTIROKI Elboyeva Shaxnoza	147
24.	STRATEGIES FOR THE ASSESSMENT OF STUDENTS' SPEAKING COMPETENCE N.B. Rasulova	154
25.	TEMURIYLAR DAVRIDA XALQARO MUNOSABATLAR Usmonov Jahongir Xujakulovich	160
26.	ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОСЕТЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС МОДЕЛИРОВАНИЯ УРОКА РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ Азимова Камила Мйдинжонова Набижонова Малика Бахтиёр кизи	164
27.	O'ZBEKISTONDA TA'LIM SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA XOTIN-QIZLARINING O'RNİ Elboyeva Shaxnoza Bo'riniyozovna	174
28.	MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYA YETISHMASLIGINING SABAB VA OMILLARI G'ulomova Dilgira Dilmurod qizi	181
29.	OZIQ-OVQAT SANOATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI Obidov Madaminbek Maxmudjon o'g'li Mamadjonova Bibixonim Ulug'bek qizi	187
30.	SOVET AGRAR SIYOSATI VA O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI (1920–1980-YILLAR) Poyonov Behruz Rashid o'g'li Do'smurodov Shodiyor Sobirovich	191



ESLATMA!

"SCIENCE SHINE" xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma'lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to'g'riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!

The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!



International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 16(82)
05. 06. 2026

©Jurnal hajmi: 477 bet.

©Farg'ona viloyati, O'zbekiston Respublikasi

©<http://science-shine.uz/>